

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.I.03.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**RAXMATOVA MA'SUDA GAYBULLAYEVNA**

**SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI  
QO'LLASH ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH  
(Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonolari misolida)**

**08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской диссертации (PhD)  
философии по экономическим наукам**

**Content of the Doctoral (PhD) dissertation abstract**

**Raxmatova Ma’suda Gaybullayevna**

Sanoat korxonalarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash asosida samaradorlikni oshirish (Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarini misolida).....3

**Рахматова Маъсуда Гайбуллаевна**

Повышение эффективности промышленных предприятий на основе использования инновационных технологий (на примере предприятия Мубарекского нефтегазодобывающего управления) .....29

**Rakhmatova Masuda Gaybullaevna**

Improving the efficiency of industrial enterprises through the use of innovative technologies (on the example of the enterprise of the Mubarek oil and gas production department).....55

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....59

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.I.03.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**RAXMATOVA MA'SUDA GAYBULLAYEVNA**

**SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI  
QO'LLASH ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH  
(Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonolari misolida)**

**08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.3. PhD/Iqt1186 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tdiu.uz](http://www.tdiu.uz)) va "ZiyoNet" ta'lim axborot tarmog'ida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Qodirov Abdusattorxo'ja**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xashimov Akrom Abdiyevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent kimyo-texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2023.I.03.05 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil "13" may soat 16-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32. e-mail: [tstu\\_info@tdtu.uz](mailto:tstu_info@tdtu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32. e-mail: : [tstu\\_info@tdtu.uz](mailto:tstu_info@tdtu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023 yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**N.M. Maxmudov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**M.S. Saitkamolov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori,  
dotsent

**M.A. Tillaxo'jayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi v.b., iqtisodiyot fanlari  
doktori, dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda iqtisodiy va texnologik taraqqiyotining yangi bosqichi sifatida namoyon bo'lgan innovatsion inqilob sharoitida neft va gaz sanoati ishlab chiqarish samaradorligini innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra (2022 yil) "...Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 60 foizga yetishi, aynan innovatsion yangiliklarni sanoat tarmoqlariga keng qo'llash va samarali foydalanish hisobiga yaratilmoqda"<sup>1</sup>. Bugungi kunda jahonda sanoat ishlab chiqarish rivojlanish tendensiyalariga ko'ra, jumladan neft va gaz sanoatini resurslardan samarali foydalanish, raqobatbardoshlikni ustuvor darajada, innovatsion va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni optimal tashkil qilish, mehnat unumdorligini oshirish, munosib ish joylarini tashkil qilish asosida rivojlantirish dolzarb muammolar sifatida qaratilmoqda.

Jahonda sanoat korxonalarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash asosida samaradorlikni oshirishda belgilangan parametrlarga ko'ra ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish (takomillashtirish), raqamli texnologiyalar, jumladan "big data" (ulkan ma'lumotlar) va "artificial intelligence" (sun'iy intellekt)ni soha xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qo'llashning uslubiy-dasturiy asoslarini takomillashtirish kabi yo'nalishdagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida neft va gaz ishlab chiqarish bo'g'inlarining texnik-texnologik jihatdan uyg'un sxemasiga ko'ra samaradorligini oshirish, sun'iy intellekt hisobiga raqamlashtirish texnologiyalarini takomillashtirish, sohada mehnatni ratsional tashkil qilish kabi yo'nalishdagi tadqiqotlar ustuvor darajada bajarilmoqda.

Yangilanib borayotgan O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarish tarmog'ini jadal sur'atlar bilan sifat jihatdan rivojlantirish, ishlab chiqarishga innovatsion yangiliklar va texnologiyalarni keng qo'llagan holda texnik-texnologik darajasini ilg'or jahon amaliyotiga muvofiqlashtirish kabi yo'nalishlarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. "... Iqtisodiyotning barcha sohalarini innovatsiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Yangi O'zbekiston iqtisodiyotining milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o'sishini va korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar o'tkazgan tahlillar ham buni tasdiqlamoqda..."<sup>2</sup>. Bu borada ishlab chiqarish bo'g'inlari, jumladan siquv kompressor stansiyalari faoliyatini dasturiy integratsiyalashning uslubiy asoslarini takomillashtirish, ishlab chiqarish samaradorligining raqamli infratuzilmalarni muqobillashtirish, mehnat unumdorligiga ko'ra ishlab chiqarishning istiqbolda rivojlantirish bo'yicha

<sup>1</sup> Цифровые дивиденды. Обзор Доклада о мировом развитии 2016. Всемирный банк, 2016. с22

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисининг 2020 йил 24 январдаги «2020 йил — Илм-маърифат ва рақамли иқтисодийотни ривожлантириш йили» номли Мурожаатномаси //Халк сўзи, 2020 йил 25 январ.

tavsiyalarni asoslash kabi yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqotlar ko‘lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2018-yil 1-avgustdagi PF-5497-son “2017-2021-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashni yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada kommunikatsiya texnologiyalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 7-maydagi PQ-3698-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifalarni hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Xalqaro tajribada sanoat korxonalarini faoliyatida innovatsiyalarini samarali qo‘llash asosida rivojlantirishning turli jihatlarini X.Davis, L.Neal, M.Tomas, R.A.Solou, E.Leyzer, R.Suomi, E.Gombaz<sup>3</sup> kabi xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan.

Sanoat korxonalarida innovatsiyalarni qo‘llash asosida takomillashtirish muammolariga oid masalalar MDH davlatlari olimlaridan: M.Kastells, B.Panshin, A.Sokolov, A.Kunsman, R.Buxt, R.Xiks, M.Poloxixina, I.Strelkova, M.Kalujskiy, S.Plugotarenko, R.Guseinov<sup>4</sup> va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan.

---

<sup>3</sup> Hywel M. Davies; Ali Hashim, Eduardo Talero Information systems strategies for Public Financial Management», World Bank, 1993; Lane Neal. Advancing the Digital Economy into the 21st Century (Assistant to the US President for Science and Technology), 1999; Mesenbourg Thomas. Measuring the Digital Economy (US Bureau of the Census), 2001; R.A. Solow Contribution to the Theory of Economic Growth/ Quarterly Journal of Economics 1956. Vol.70. February. P. 65-94.; Ebenezer G.Laizer, Reima Suomi. Evaluation of Integrated Financial Management Information Sistem (IFMIS) in Malavi.2017. Proceedings of the 11th European Conference on Information Sistem Management.ISBN:978-1-911218-52-4; Combaz Emilie, Implementing Integrated Financial Management Information Sidtems (GSDRC Helpdesk Research Report, 1229). Birmingham, UK.

<sup>4</sup> Кастеллс М. Размышления об Интернете, бизнеса и обществе. Екатеринбург: У – Фактория, 2004; Б. Паньшин Цифровая экономика: особенности и тенденции развития.// Наука и инновации. – 2016. – Т.3. – №157. – с.17-20.; Соколов И.А. Цифровая экономика Западной Австралии – умные горнорудные и нефтегазовые предприятия, железные дороги, морские порты и формализованные онтологии. – [https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovayaekonomika-zapadnoy-avstralii-umnye-gornorudnye-i-neftegazovye-predpriyatiya-zheleznyye-dorogi-morskie-porty-i](https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovayaekonomika-zapadnoy-avstralii-umnye-gornorudnye-i-neftegazovye-predpriyatiya-zheleznyye-dorogi-morskie-porty-i-formalizovannyye-ontologii); Кунцман А.А Трансформация внутренней и внешней среды бизнеса в условиях цифровой экономики // Управление экономическими системами: электронный научный журнал. – 2016. - № 11(93). – с. 1.; Бухт Р., Хикс Р. (2018) Определение, концепция и измерение цифровой экономики // Вестник международных организаций. Т. 13. № 2. С. 143 – 172 (на русском и английском языке). DOI: 10.17323/1996-7845-2018-02-07.; Положихина М.А. Цифровая экономика как социально-экономический феномен.- <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-ekonomika-kak-sotsialno-ekonomicheskii-fenomen/viewe>; И.А. Стрелкова Цифровая экономика: новые возможности и угрозы для развития мирового хозяйства. - <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-ekonomika-novye-vozmozhnosti-i-ugrozy-dlya-razvitiya-mirovogohozyaystva/viewer>; Калужский М.Л. Цифровая экономика: как специалисты понимают этот термин. – <https://ria.ru/science/20170616/1496663946.html>. Плуготаренко С.А. Развитие цифровой экономики может

Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarida innovatsion texnologiyalarini samarali qo'llash, boshqaruvi va samaradorligini oshirish masalalari S.S.G'ulomov, N.M.Maxmudov, B.A.Begalov, T.K.Iminov, A.N.Aripov, A.Qodirov, N.A.Iminova, G'.A.Samadov, M.A.Maxkamova, G.J.Allayeva, G.K.Taraxtiyeva<sup>5</sup> va boshqa bir qator olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlarda respublikamiz sanoat tarmoqlarida innovatsiyalarni qo'llash asosida takomillashtirish masalalari alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Ikkinchi tomondan, tadqiq etilayotgan ishda respublikamiz sanoati korxonalarida texnologik jarayonning iqtisodiy samaradorligi, hozirgi rivojlanish xususiyatlari va innovatsiyalar texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari inobatga olingan bo'lib, bu esa tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligi, maqsadi hamda unda hal etiladigan masalalar doirasini belgilashga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Shuning uchun dissertatsiyaning ilmiy izlanishiga innovatsion rivojlanish sharoitida respublikamiz sanoat korxonalari faoliyatini innovatsion texnologiyalar asosida samaradorlikni oshirish masalalari tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №PZ-20170926232 "Fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi intellektual hamkorlikni shakllantirish va qo'llash" mavzusidagi ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalari faoliyatini innovatsion texnologiyalarni qo'llash asosida samaradorlikni oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

sanoat korxonalari faoliyatini innovatsiyalar asosida takomillashtirish va modernizatsiyalashning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish;

---

статья мощным драйвером для выхода страны из кризиса. - <https://tass.ru/interviews/4192130>, 20.11.2018.; III.P. Гусейнов Методология управления стоимостью корпоративных образований в условиях цифровой экономики Автореф. на соиск.уч.степ.д.э.н. – Т.: 2019.;

<sup>5</sup> Гуямов С.С., Махмудов Н.М., Терехова Л.Л Системный анализ эффективности производства в рыночных условиях.-Т.: Мехнат., Махмудов Н.М. Иктисодий ўсишни жадаллаштиришда қайта ишловчи саноатнинг роли: эмпирик таҳлил//Илм-фан ва инновацион ривожлантириш. Т.: 2018. -№3.-30-36-б.; 1992.-163с. Бегалов Б.А. Ахборот коммуникациялар бозорининг шаклланиш ва ривожланиш тенденцияларини эконометрик моделлаштириш. Иктисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: 2001.; Иминов Т.К., Арипов А.Н. Ўзбекистон ахборот-коммуникация технологиялари соҳаси менежменти масалалари. Монография. – Т.: Fan va texnologiya, 2005. – 300 б.; Иминова Н.А. Алоқа соҳасида рискларни бошқариш. Монография, Т.: Алоқачи. 2012. – 178б.; Саматов Ғ.А. Инновацион техника ва технологиялар самарadorлиги ва унда техник-иктисодий тадқиқотларнинг ривожлантирилиши.// Иктисодиёт ва таълим №1 2015-й 48-52б., Махкамova М.А. Формирование организационно-экономического механизма управления инновационной деятельностью на промышленных предприятиях Республики Узбекистан. Дисс.док. экон. наук. – Т.: 2004, – 291 с.; Аллаева Г.Ж. Эффективное развитие предприятий топливно-энергетического комплекса Республики Узбекистан., автореферат дисс. докт. философии, Т.: 2018г., Тарахтиева Г.К. «Нефть - газ саноатида инновацион кластерларни шакллантириш ва ривожлантириш механизми». Иктисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. ТДТУ, Тошкент 2021.

globallashtirish sharoitida sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini innovatsiyalar asosida samarali rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni tadqiq qilish;

rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida ishlab chiqarishni innovatsiyalar asosida tashkil etishning xorijiy tajribalarini o'rganish asosida ilmiy takliflar ishlab chiqish;

Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarini faoliyatini iqtisodiy-texnik imkoniyatlarini, 2014–2021-yillarda erishgan yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish;

texnologik jarayonlarni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarini ishlab chiqarish jarayonlaridagi innovatsion texnologiyalardan foydalanishdagi muammolarni aniqlash;

sanoat korxonalarida innovatsiyalarni qo'llash asosida ishlab chiqarishda korxonalar bo'lim va sexlari orasidagi dasturlashtirilgan integratsiya tizimini takomillashtirish;

Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarini faoliyatini innovatsiyalar asosida faoliyat samaradorligini oshirish tendensiyalarini aniqlash;

innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash asosida Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarini faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** milliy iqtisodiyotning gazni qayta ishlash sanoatining yetakchi bo'lgan Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirishning texnik-iqtisodiy jihatlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** Sanoat korxonalarida innovatsiyalarni qo'llash asosida innovatsiyalardan samarali foydalanish jarayonida vujudga kelgan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar o'zaro yig'indisidan iborat.

**Tadqiqotning usullari** Dissertatsiyada ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, korrelyatsion va regressiya tahlil, induksiya, deduksiya, statistik, guruhlash, tizimlashtirish, iqtisodiy-matematik modellashtirish va boshqa usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarini ishlab chiqarish samaradorligini gazni birlamchi tayyorlash, realizatsion sinash va universal saqlash jarayonining raqamli infratuzilmasini muqobillashtirish, gazni birlamchi tayyorlash jarayonini SCADA (innovatsiyalari) va siquv kompressor stansiyalari gaz haydash agregatlaridan foydalanishni optimallashtirilgan holda oshirish taklif etilgan;

ishlab chiqarish samaradorligiga yondashuv ish stansiyalari (AWS) va yagona hisoblash muhiti (ERP)ni SCADA (innovatsiyalar) raqamlashtirishga ko'ra takomillashtirishning muvofiqligi asoslangan;

Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarida mahsulot sotish hajmi va mehnat unumdorligi ko'rsatkichining 2023-2027-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

siquv kompressor stansiyalari va gaz haydash agregatlarini dasturiy integratsiyalashga ko'ra Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi

korxonalari bo'lim va sexlarining avtomatlashtirilgan integratsiyalashuv samaradorligini oshirishi asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

siquv kompressor stansiyalari, gaz haydash agregatlaridan foydalanish ixchamlashtirilgan va kamxarj integratsiyasining iqtisodiy samaradorligini baholash usuli ishlab chiqilgan;

Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarida innovatsion texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalar asosida ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish va mahsulot turini diversifikatsiyalash uchun uzoq muddatli istiqbol vazifalar aniqlashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Innovatsion rivojlanish vazirligi (sobiq), Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarining statistik ma'lumotlaridan olingani, xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan uslubiy takliflar, tavsiya va xulosalar sanoat korxonalarini faoliyatini raqamli dasturlar va innovatsiyalar asosida takomillashtirish va ulardan ishlab chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari asoslarini takomillashtirishga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan respublika sanoat korxonalarida innovatsiyalarini qo'llash, raqamlashtirish jarayonini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqiladigan dasturiy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi hamda neft-gaz sanoatini samarali rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sanoat korxonalarini samaradorligini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda oshirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy-amaliy takliflar asosida:

Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarini ishlab chiqarish samaradorligini gazni birlamchi tayyorlash, realizatsion sinash va universal saqlash jarayonining raqamli infratuzilmasini muqobillashtirish, gazni birlamchi tayyorlash jarayonini SCADA (innovatsiyalari) va siquv kompressor stansiyalari gaz haydash agregatlaridan foydalanishni optimallashtirishga ko'ra oshirish bo'yicha takliflar boshqarma korxonalarini amaliy faoliyatiga joriy qilingan (Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining 2021-yil 28-noyabrdagi 28-1-11-01-45-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu takliflarning joriy qilinishi natijasida Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarini iqtisodiy samaradorligini 8,8% oshishiga muayyan darajada xizmat qilgan;

ishlab chiqarish samaradorligiga ish stansiyalari (AWS) va yagona hisoblash muhiti (ERP)ni SCADA (innovatsiyalar) raqamlashtirishga ko'ra takomillashtirilgan yondashuvdan Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan

(Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining 2021-yil 28-noyabrdagi 28-1-11-01-45-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur yondashuv boshqarma korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati, innovatsion texnologiyalarni transfer qilish, ilmiy-texnik natijalarini rivojlantirish kabilarning sinergetik samaradorligini 12% oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarida mahsulot sotish hajmi va mehnat unumdorligi ko'rsatkichining 2021-2025-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining 2021-yil 28-noyabrdagi 28-1-11-01-45-sonli ma'lumotnomasi). Takliflarning joriy qilinishi natijasida boshqarma korxonalarining sotishdan tushgan sof tushumi 2025-yilda 2020-yilga nisbatan 3,8 barobarga ortishiga muayyan darajada imkon yaratgan;

siquv kompressor stansiyalari va gaz haydash agregatlarini dasturiy integratsiyalashga ko'ra Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarini bo'lim va sexlari avtomatlashtirilgan integratsiyalashuv samaradorligini oshirishi bo'yicha taklif Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarini faoliyatiga joriy qilingan (Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi 2021-yil 28-noyabrdagi 28-1-11-01-45-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu takliflarning amaliyotga joriy qilinishi natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmining 2,1%ga oshishiga muayyan darajada xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ishlar e'lon qilingan, shulardan Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta respublika va 2 ta xorij jurnallarida maqolalar nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 162 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Sanoat korxonalarini faoliyatini innovatsiyalar asosida samarali rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlanib, unda sanoat korxonalarida innovatsiyalar asosida rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari, sanoat korxonalarini faoliyatini innovatsiyalar asosida samarali rivojlantirishdagi ichki hamda tashqi omillar va rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida sanoat korxonalarini faoliyatini innovatsiyalar asosida takomillashtirishning xorij tajribasi asoslari tadqiq etilgan.

Jahon iqtisodiyotining bugungi globallashuvi va jamiyatning axborotlashuvi sharoitida iqtisodiy nazariyalarning deyarli barchasida raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar va platformalar “Sanoat 4.0” inqilobining asosiy omillari sifatida tan olingan. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida innovatsiyalarlar asosida ishlab chiqarish jarayonlari raqamlashtirish nafaqat alohida iqtisodiy subyektning, balki butun bir tizimning ham rivojlanishini ta’minlovchi asosiy o‘shish manbai hisoblanadi.

Innovatsiyalar rivojlanishining boshlang‘ich davridadir, chunki sivilizatsiyaning raqamli axborot bosqichiga o‘tishi bir necha o‘n yil avvalgina boshlangan. “Innovatsiya” atamasi ilmiy amaliyotga ispaniyalik va amerikalik sotsiolog, axborotlashgan jamiyatning yetakchi tadqiqotchisi Manuyel Kastels tomonidan kiritilgan. Hozirgi vaqtga kelib, innovatsiya nazariyasi to‘laligicha hali shakllanmagan va ko‘pchilik iqtisodchilar tomonidan keng miqyosda o‘rganilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda hozirgi zamon “Yangi iqtisodiyot” turli xil atamalar bilan nomlanadi. Masalan, “e-economy”(Hywel M)<sup>6</sup>, “postindustrial iqtisodiyot” (A.Sokolov)<sup>7</sup>, “axborotlashgan iqtisodiyot” (M.Kastells), “megaiqtisodiyot” (V.Kuvaldin), “axborot va aloqaga asoslangan iqtisodiyot” (I.Niniluto), “texnoiqtisodiyot yoki raqamli iqtisodiyot” (B.Geyts)<sup>8</sup>, “bilimlarga asoslangan iqtisodiyot” (D.Tapskott). Ushbu tushunchalarni bog‘lab turadigan omil – bu iqtisodiy jarayonlarning globallashuv jarayonida axborot texnologiyalarining birlamchi o‘rinni egallashi bo‘lib hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida raqamlashtirish jarayoni iqtisodiyot sohasida takomillashtirish bo‘yicha mahalliy olimlarimizdan B.A.Begalov<sup>9</sup>, N.M. Maxmudov<sup>10</sup>lar o‘zining ilmiy ishlarida sanoat iqtisodiyotidagi, texnik standartlarni belgilashda tadqiqot va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynadi, bu esa o‘z navbatida innovatsion iqtisodiyotning yangi sektori-raqamli bozorni paydo bo‘lishiga yordam berdi degan fikrlarni bildirgan.

Innovatsiyalar haqida tayyorlangan adabiyotlar (turli kitoblar, darsliklar, ilmiy maqola va monografiyalar)da “raqamli texnologiya” haqida juda ko‘pqirrali fikr va mushohadalar keltirilgan bo‘lib, ular xususida yagona yondashuv mavjud emas. O‘rganishlarimiz va tadqiqodlar natijasida ma‘lum bo‘ldiki, “innovatsiyalar” atamasi dastlab 1995-yillarda Don Tapskott tomonidan “Raqamli iqtisodiyot: Tarmoq razvedkasi va xavfi” asarida qo‘llanilgan. Don Tapskottning fikriga ko‘ra, raqamli iqtisodiyotda barcha jarayonlar “raqamli elektron tizimga, ya’ni internet, raqamli ma’lumotlar va kompyuter texnologiyalariga asoslanadi”. Bunda jamiyatda kechayotgan iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar, biznes, moliya – kredit xizmatlari va

---

<sup>6</sup> Hywel M. Davies; Ali Hashim, Eduardo Talero *Information systems strategies for Public Financial Management*, World Bank, 1993;

<sup>7</sup>Соколов И.А. Цифровая экономика Западной Австралии – умные горнорудные и нефтегазовые предприятия, железные дороги, морские порты и формализованные онтологии. –<https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovayaekonomika-zapadnoy-avstralii-umnye-gornorudnye-i-neftegazovye-predpriyatiya-zheleznye-dorogi-morskie-porty-i>;

<sup>8</sup> International Data Corp. <https://www.pwc.com/gx/en/industries/technology/publications/global-100-software-leaders/explore-the-data.html>;

<sup>9</sup> Ахборот комуникациялар бозорининг шаклланиш ва ривожланиш тенденцияларини эконометрик моделлаштириш. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: 2001.;

<sup>10</sup> Махмудов Н.М. Иқтисодий ўсишни жадаллаштиришда қайта ишловчи саноатнинг роли: эмпирик таҳлил//Илм-фан ва инновацион ривожлантириш. Т.: 2018. -№3.-30-36-б.;

boshqa qator faoliyatlar internet (web) va raqamli aloqalarni amalga oshirishga xizmat qiladigan elektron texnologiyalar asosida amalga oshiriladi<sup>11</sup>.

“Innovatsion texnologiya”larning iqtisodiy mohiyatini ochib bergan adabiyotlarda ba’zan ushbu atama “innovatsion iqtisodiyot” ma’nolarida ham uchraydi, unga ko‘ra “raqamli (elektronika gibridlashgan iqtisodiyotdir” tarzidagi ta’rif beriladi. Zamonaviy innovatsiyalar ta’sirida iqtisodiyotning barcha sohalarini yangilanayotgan iqtisodiyotga transformatsiya qilish bo‘yicha 2000 yillarda iqtisodchi olim E.Brinolfsson, B.Kabin<sup>12</sup>, B.Joxansson, Ch.Karlson, R.Stoular<sup>13</sup> tomonidan konsepsiya ishlab chiqilgan. E.Brinolfsson va B.Kaxin fikricha raqamli iqtisodiyot tarkibiga innovatsiyalar, shuningdek axborotlarni qayta ishlaydigan innovatsiyalar yordamida taklif etiladigan ishlab chiqarish va xizmatlarni kiritadi. B.Karlsson va R.Stou fikricha esa, ishlangan konsepsiyasida innovatsiyalar yordamida iqtisodiyotni transformatsiya qilish jarayoniga ta’sirini rivojlantirdi va innovatsiyalar o‘zaro bir – biriga mujassamlashtirgan holda nafaqat ishlab chiqarish sohasini, balki qayta ishlash tizimining rivojida ham muhim o‘rin tutishi mumkinligini asoslab berdi.

Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan “texnologiya”larga iqtisodiy jihatdan – ishlab chiqarish, qayta – ishlash va taqsimlash jarayonlarini mantiqiy ketma-ketlikda bajariladigan dasturlash yoki programmalashtirish orqali texnologiyalarni keng joriy etishni ko‘zda tutadigan avtomatlashgan faoliyatdir, degan yangicha ta’rif ishlab chiqildi. Demak, dasturlash yoki programmalashtirish asosida tashkil etilgan ishlab chiqarish jarayoni an’anaviy ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan takomillashtirilgan, avtomatlashtirilgan, robotlashtirilgan, nihoyat raqamlashtirilgan qo‘shimcha qulayliklarga ega infratuzilma asosida ishlab chiqarish jarayoni hisoblanadi. Bizningcha, “raqamli iqtisodiyot” va “raqamli texnologiya” tushunchalari bir-biridan tubdan farq qiladi degan fikr noto‘g‘ri bo‘lar edi. Aksincha, raqamli iqtisodiyot – bu innovatsiyalar (dasturiy ta’minotlar, Internet (web), platformalar) rivojlanishi natijasida rivojlangan, davomi sifatida ishlab chiqarishni raqamlashtirish va avtomatlashtirishning pirovard natijasi deb hisoblaymiz. Innovatsiyalar ishlab chiqarish jarayonini intellektual raqamli boshqarishning asosidir.

O‘tgan asrning 60-yillarida telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi kommutatsion stansiyalarning imkoniyatlaridan noan’anaviy foydalanishning arxitekturaviy yechimlari asosida aloqa bog‘lamalarida dasturiy boshqaruv paydo bo‘ldi. Natijada ishlab chiqarishni dasturiy ta’minotlar asosida boshqarish yangi avlodi paydo bo‘lishi va rivojlanishi bilan takomillashib bordi. Beshinchi avlod kompyuterlari paydo bo‘lishi bilan “sun’iy intellekt” deb nom oldi<sup>14</sup>. Bu avlod kompyuter tizimlarini o‘rganish va biror faoliyatdan olgan ma’lumotlarni kerakli joyda ishlatish imkonini berdi. Bunday keng imkoniyatlardan

<sup>11</sup> Don Tapscott. Evolving towards a Homogenous Society: The Risk of the New Digital Economy


<sup>12</sup> Brynjolfsson E., Kabin B. Understanding Digital Economy: Data, Tools and Research. Massachusetts, and London, England: The MIT Press, 2000.408 p.

<sup>13</sup> Johansson B., Carlson Ch., Soughs R. The Emerging Digital Economy: Entrepreneurship, Clusters and Policy. Berlin: Springer Science & Business Media, 2006.352 p.

<sup>14</sup> Грузинов В.П. Экономика предприятия. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2013г.795с.

foydalangan holda o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab intellektual tarmoq yaratish konsepsiyasi amalga oshirila boshlangan. Innovatsiyalar esa shu tarmoqning bir bo'lagi – asosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2020-yilning “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qilinishi hamda shu bo’yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgani ham respublika milliy iqtisodiyotining barcha tarmoq va sohalarida raqamlashtirish, innovatsiyalar yaratish va AKTni keng qo‘llash bo’yicha ustuvor yo‘nalishlar asosida rivojlanishini nazarda tutadi. Kelasi besh yil ichida raqamli iqtisodiyotga o‘tish vazifasi qat’iy maqsad sifatida belgilab qo‘yildi. Tadqiqotimiz natijasida yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib, sanoat korxonalari faoliyatini axborotlashtirish va raqamlashtirishga evolyutsion o‘tish jarayoniga ta’sir etayotgan ichki va tashqi omillarni alohida ajratib ko‘rsatdik (1-rasm).



**1-rasm. Sanoat korxonalari faoliyatini axborotlashtirish va raqamlashtirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar<sup>15</sup>**

Bizning fikrimizcha, sanoat korxonalari faoliyatini axborotlashtirish va raqamlashtirishdagi ichki omillari ya’ni texnik jihozlar va texnologiyalarni eskirganligi, yangi innovatsion texnologiyalarga ajratilayotgan moliyaviy

<sup>15</sup> Muallif ishlanmasi

mablag'larni nisbatan yetarli emasligi, mavjud investitsion loyihalarni amalga oshirishdagi kechikishlar o'z navbatida mamlakatimiz sanoatidagi eng og'riqli nuqtalaridan biri bo'lib qolmoqda. Sanoat korxonalari faoliyatini takomillashtirishdagi tashqi omillar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, korxonadagi mavjud texnologiyalarni modernizatsiyalash va zarur bo'lgan texnika-texnologiyalarni sotib olishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarimizni ishga solishimiz lozim. Shu bilan bir qatorda yetuk va malakali kadrlarga ega bo'lish va texnologiyalardan foydalana olish uchun tajriba o'z-o'zidan talabni vujudga keltiradi. Bu o'z navbatida zamonaviy texnika va texnologiyalarga chetdan ta'sir qilishini ko'rish mumkin.

XX asr oxirida rivojlangan davlatlar sanoat korxonalarida "Sanoat 4.0" inqilobi bo'yicha yondashuvlar va prinsiplar sezilarli darajada o'zgardi. Mamlakatlarda sanoat korxonalarining texnik holati, mexanizmlari va inson omilining aralashuvi kamayishi boshlandi. Sanoat korxonalaridagi innovatsiyalar asosida takomillashtirish bo'yicha Rossiya, Xitoy, Yaponiya, AQSH, Hindiston va Erondagi muvaffaqiyatli xalqaro tajribalar o'rganib chiqildi. O'tgan yillar mobaynida innovatsiyalardagi o'sish va ularning hayotimizga ta'siri sezilarli darajada o'zgardi. Neft-gaz sektoridagi kompaniyalar faoliyatiga talab ortishi natijasida birinchi o'ringa chiqadi va iqtisodiyotni raqamli resurs bilan ta'minlanishi lozim bo'lgan o'sish nuqtalariga aylandi. O'zbekistonda xususiy kompaniyalar tomonidan raqamlashtirishga yo'naltirilgan investitsiyalar YaIMning 0,12% ini tashkil etadi. Taqqoslash uchun, AQSH dunyoda eng yuqori darajani 5% da, G'arbiy Yevropa esa 3,9% da ikkinchi o'rinda, Braziliya esa 3,6% da uchinchi o'rinda turadi<sup>16</sup>. Shunday qilib, hozir O'zbekiston umumiy raqamlashtirish darajasi bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallagan davlatlardan 8-10 yil orqada.

Prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra, 2030-yilga borib O'zbekistonda YaIMning o'sishi 30% dan ortig'i sanoatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi<sup>17</sup>. Bundan tashqari, bu yerda asosiy rol nafaqat sanoatning rivojlanishi, balki ushbu rivojlanishdan olingan ta'sir - mamlakat iqtisodiyotining boshqa tarmoqlari samaradorligi va raqobatbardoshligining umumiy o'sishi bilan ham o'ynaydi. Agar taqqoslaydigan bo'lsak, O'zbekistonning neft-gaz sanoati bo'yicha strategik hamkori bo'lgan Rossiyada infratuzilmaning rivojlanish darajasi boshqa BRIKS davlatlariga qaraganda yuqori, Xitoy va Braziliya besh yil ichida bu bo'shliqni 1,6-1,2 barobardan kam darajada faol qisqartirmoqda.

Jahon banki ekspertlarining fikricha, internetdan foydalanuvchilar sonining atigi 10% ga o'sishi yillik YaIM o'sishini 0,4 dan 1,4% gacha oshirishi mumkin. 10-15 yil ichida doimiy o'sish sur'atlari bilan ushbu iqtisodiyotning jahon YaIMdagi ulushi 30-40% ga o'sishi prognoz qilinmoqda. Raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston voqeligidagi o'zni haqida gapirganda, uning O'zbekiston YaIM dagi ulushi 1,49% ni tashkil etishini ta'kidlash mumkin. Biroq, bu iqtisodiy ko'rsatkich AQSHda – 10,9%, Xitoyda -10%, Hindistonda 5,5%ni tashkil qiladi.

---

<sup>16</sup> Minges M. Exploring the relationship between broadband and economic growth. WDR. 2019

<sup>17</sup> Umarov, I. Y., & Yusupova, M. Features of digital innovation management in business. In World science: problems and innovations collection of articles of the XX-XI International Scientific and Practical Conference: at (Vol. 4).

Bu o'sishning ko'p qismi zamonaviy texnologiyalar, jumladan, jadal rivojlanayotgan innovatsiyalarga asoslangan va qo'llab-quvvatlanmoqda<sup>18</sup>. Masalan, innovatsiyalar Xitoy iqtisodiyotining deyarli 9% va uning barcha biznes xarajatlarining to'rtidan bir qismini tashkil etadi. Ishlab chiqarishni raqamlashtirishning potensial iqtisodiy foydasi katta, bu birinchi navbatda, yangi daromad manbalarini shakllantirish va mamlakat iqtisodiy imkoniyatlari chegaralarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Neft va gaz qazib chiqarish korxonalarini samaradorligini innovatsiyalar asosida oshirishning iqtisodiy tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobda sanoat korxonalarida, xususan Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarining faoliyati va iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili keltirib o'tilgan va innovatsiyalarini qo'llash asosida ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish samaradorligini oshirishning uslubiy jihatlari o'rganilgan.

Jahon olimlarining fikricha, innovatsiyalarini turli sohalarida keng qo'llash mehnat unumdorligining oshishiga, qulaylik va imkoniyatlarning kengayishiga, ishlab chiqarish sifatining oshishiga, sanoatni rivojlanishiga va iqtisodiyotning o'sishiga olib keladi.

O'tkazgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga qo'llash ko'p jihatdan moliyaviy mablag'larni tejashga yordam beradi. Shuning uchun ham rivojlangan va rivojlanayotgan dunyo mamlakatlari innovatsiyalar va innovatsiyalar mahsulotlarini sanoat sohasida qo'llab, infratuzilmani yanada rivojlantirishga intilmoqdalar.

Mamlakatimiz hududining qariyb 54 foizi neft va gaz qazib olish sohasida istiqbolli hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimizda 5 ta neft va gaz mintaqalari (Ustyurt, Buxoro-Xiva, Hisor, Surxondaryo va Farg'ona) 235 neft va gaz konlari ochilgan, ularning 201 tasi bo'sh gaz, 124 tasi neft va 159 tasi kondensatdir. 100 dan ortiq'i ishlab chiqarish bosqichida, 79 tasi rivojlanish uchun tayyorlanmoqda va 60 tasi qidiruv ishlarida. Hozirgi vaqtda 73 ta neft va gaz-neft konlarida 56 ta obyektlar oxirgi bosqichda, ulardan 38 tasi Farg'onada, 6 ta Surxondaryoda va 12 ta Buxoro-Xiva neft va gaz mintaqasida.

“O'zbekneftgaz” AJ o'z faoliyatini 5ta aksiyadorlik jamiyatlarini o'z ichiga olgan butun neft va gaz sanoatini qamrab oladi: “O'zburgerneftgaz” AJ (neft va gaz quduqlarini geologik-qidiruv, razvedka va ishlab chiqarish burg'ilash), “O'zneftgazqazibchiqarish” AJ (neft va gaz konlarini o'zlashtirish, neft, gaz va gaz kondensatini qazib olish, tabiiy gazni qayta ishlash), “O'ztransgaz” AJ (transport va yer osti transportida) “O'zneftmahsulot” AJ (Farg'ona, Oltiariq va Buxoro neftni qayta ishlash zavodlari, neft va gaz kondensatini qayta ishlash, 100 foiz mulk egasi), “O'zneftgazmash” AJ (neft va gaz va gaz-kimyo majmualari korxonalarini va tashkilotlari uchun muhandislik mahsulotlarini ishlab chiqarish).

Bugungi kunga kelib kompaniyada 200 dan ortiq korxonalar mavjud bo'lib, ularda 128 mingga yaqin mutaxassis ishlaydi. Neft va gazni qayta ishlash “O'zbekneftgaz” AJga qarashli korxonalarda – Muborak gazni qayta ishlash zavodi (neft va gazni qazib olish va gazni qayta ishlash korxonalarini), Sho'rtan gazni qayta ishlash zavodi, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi va Ustyurt gaz-kimyo majmuasida amalga oshiriladi (1-jadval).

---

<sup>18</sup> World Energy Outlook 2018 examines future patterns of global energy system at a time of increasing uncertainties. <https://www.iea.org/newsroom/news/2018/november/world-energy-outlook-2018-examines-future-patterns-of-global-energy-system-at-a-t.html>.


Bugungi kunda “O‘zbekneftgaz” AJ quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi: neft va gaz konlarini ratsional ishlatish; neft, gaz va gaz kondensatini qazib chiqarish; neft va gaz kondensatini tashish; gazni qayta ishlash va “O‘zneftgazqazibchiqarish” AJ obyektlari bilan respublikaning gaz tashishga ixtisoslashgan korxonalariga qarashli magistral gaz quvur yo‘llari tizimi o‘rtasidagi o‘zaro bo‘lishish chegaralarigacha tashib berish; oltingugurt, suyultirilgan gaz, chuqur ishlov berish bilan olinadigan mahsulotlar va polimerlar (polietilen) ishlab chiqarish; quduqlarni mukammal ta‘mirlash; qurilish-montaj ishlari; ilmiy tadqiqot ishlari; xalq iste‘moli mollarini ishlab chiqarish va boshqalar.

### 1-jadval

#### “O‘zbekneftgaz” AJning faoliyat turi bo‘yicha ishlab chiqarish quvvatlari holati (yiliga ming.tn/mln.m<sup>3</sup>)<sup>19</sup>

Korxonalar nomi	Neft va uni qayta ishlash	Gaz va uni qayta ishlash	Tabiiy gaz	Gazni serotozalash	Suyuq gaz va uglevododlar
Muborak NGQCHB	328,	36900	27890	400,5	29,1
Sho‘rtangaz GQOM	77,7	17992	27200	14,0	271
“Andijonneft” AJ	132,5	15		12,0	
Gazli GQIZ	19,3	3017	4500	121,0	258
Ustyurt GQM		3423	2473	11,0	14,0
<b>Jami</b>	<b>558,4</b>	<b>61347</b>	<b>62063</b>	<b>558,5</b>	<b>572,1</b>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.07.2019 yildagi PQ-4388- son Qaroriga muvofiq “Muborakneftgaz” aksiyadorlik jamiyati “O‘zbekneftgaz” AJ tarkibidagi Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasiga birlashtirildi. Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining asosiy ish faoliyati neft, gaz va gaz kondensati qazib olish, suyultirilgan gazni ishlab chiqarish bilan bog‘liq. Boshqarmaning ishlab chiqarish obyektlari asosan Qashqadaryo, Buxoro va Samarqand viloyatlarida amalga oshiriladi.



#### 2-rasm. Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarida 2015-2022-yillarda qazib olingan tabiiy gaz va kondensat ko‘rsatkichlari<sup>20</sup>

<sup>19</sup> Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasidan olingan ma‘lumotlar asosida tuzilgan.

<sup>20</sup> Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasidan olingan ma‘lumotlar asosida tuzilgan.

Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi respublikada neft-gaz sanoatidagi yirik korxonalaridan biri hisoblanadi, uning tarkibida 10ga yaqin siquv kompressor stansiyalari 36ta gaz haydash agregatlari (Ko'kdumaloq, Zevarda, Alan, Pamuk, Janubiy O'rtabuloq, Somontepa, Dengizko'l) mavjud va Muborak koni faoliyat olib bormoqda. Boshqarma tasarrufidagi konlarda 15ga yaqin gazni mujassam tayyorlash qurilmasi (GMTQ), gazni birlamchi tayyorlash qurilmasi (GBTQ) va neft tayyorlash qurilmasi (NTQ)lari hamda gazni soeletli tozalash va quritish qurilmasi ishlab turibdi. Ushbu konlar orasi 300km ni tashkil etadi. Konlar tarqoq va cho'l hududida joylashgan. Bugungi kunda yurtimizda qazib olinayotgan suyuq uglevodorodlarning (neft, neftkondensat) 41 foizi, tabiiy gazning 53 foizidan ortiqrog'i Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi hissasiga to'g'ri keladi (2-rasm). Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarida 2015-2022-yillarda qazib olingan tabiiy gaz va kondensat ko'rsatkichlarini 2021-yilga kelib pasayish holatini ko'rishimiz mumkin.

## 2-jadval

### Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarining 2015-2022 yillar kesimida ishlab chiqarish hajmi<sup>21</sup>

T/r	Ishlab chiqarish hajmi	Yillar								O'sish sur'ati 2021 yilga nisbatan foizda
		2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	
1.	Tabiiy gaz kondensati (mln.m <sup>3</sup> )	365,92	377,31	362,18	369,67	380,158	390,21	401,35	409,77	102,4
2.	Suyultirilgan propan va butan (ml.m <sup>3</sup> )	236,06	256,65	262,18	257,453	271,537	280,123	293,431	310,843	108,6
3.	Barqaror kondensat (mln. m <sup>3</sup> )	130,9	119,5	295,9	136,9	100,3	103,7	138,8	158,3	109,6
4.	Subpudradchi tomonidan bajariluvchi tabiiy gazni tayyorlash bilan bog'liq alohida operatsiyalar (mln. so'm)	1 096,905	1 293,731	1 233,564	1499,480	1 852,954	2 566,314	2 987,540	3 501,5	111,5
5.	Sarf qilingan elektr energiya (ming kv)	202672	204829	207663	213200,0	211519,0	203851,0	173098,0	194252,0	102,2
6.	Boshqa bug' va issiqlik suv (issiqlik energiyasi) (ming Gkall)	1961,9	2018,47	2051,39	1927,3	1923,203	1936,041	1954,871	1948,324	103,1

Olib borgan tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarida 2020-2022 yillarda qazib olingan tabiiy gaz va kondensat ko'rsatkichlari pasayishi gaz konlaridagi texnologik yetishmovchiliklar

<sup>21</sup> Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasidan olingan ma'lumotlar asosida tuzilgan.

bilan bog‘liq. Bu asosan innovatsiyalarning eskirishi va texnologiyalarning amartizatsiyasi bilan bog‘liq. Ushbu masalalar korxonalarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish naqadar zarur ekanligini asoslab beradi. Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarini faoliyatini umumiy iqtisodiy pozitsiyalar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqanimizda, ushbu korxonalar barqaror ijtimoiy tuzilma bo‘lib, u atrof muhitdan resurslarni qabul qiladi va ularni o‘z faoliyatining mahsulotiga aylantiradi. Tadqiqotimiz davomida Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarining 2015-2022-yillar kesimida ishlab chiqarish hajmini mahsulotlar ko‘rinishida tahlil qildik (2-jadval). 2-jadval ma’lumotlariga ko‘ra 2015-yilda tabiiy gaz kondensati 365,92 mln.m<sup>3</sup>ni tashkil etgan bo‘lsa, 2016-yilda 377,31 mln.m<sup>3</sup>ni tashkil etgan. 2017-yilda ushbu ko‘rsatkich sezilarli darajada pasaygan, buni asosiy sababi gaz konlaridagi yangi konlar razvetkasini ish hajmi kamayganidir. 2019-yildan 2021-yilgacha oraliqda barqaror o‘shish ko‘rsatkichini ko‘rishimiz mumkin. 2022-yilga kelib 409,77 mln.m<sup>3</sup>ni tashkil etmoqda. Xuddi shu yillar bo‘yicha subpudradchi tomonidan bajariluvchi tabiiy gazni tayyorlash bilan bog‘liq alohida operatsiyalar 2014-yilda 1096,905 mln.sumni, 2021-yilga kelib 3 501,5mln.sumni tashkil etgan. Suyultirilgan propan va butan 2014-yilda 236,06 mln.m<sup>3</sup>ni, 2021-yilga kelib 310,843 mln.m<sup>3</sup>ni tashkil etdi. Jadvalga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2020-yilga kelib kamayish tendensiyasiga ega bo‘lgan, ya’ni 257,453 mln.m<sup>3</sup>ni tashkil etgan. Boshqa bug‘ va issiq suv ham (issiqlik energiyasi) 2015-yilda 1961,9 ming Gkallni, 2022-yilga kelib esa 1948,324 ming Gkallni tashkil etib kamayish tendensiyasiga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

### 3-jadval

#### 2015-2022 yillarda Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarining umumiy ko‘rsatkichlari<sup>22</sup>

	Umumiy ko‘rsatkichlar	Yillar								O‘shish sur‘ati 2021 yilga nisbatan foizda
		2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	
1.	Moliyaviy natija (foyda, ziyon) (mln.so‘m)	2964,8	4024,8	3816,3	5525,8	7842,4	80241,8	8841,7	9174,3	103,7
2.	Eksport hajmi (ming AQSh dollari)	6119,8	6868,0	7558,9	8214,3	8945,7	9231,9	9987,1	10123,7	101,4
3.	Davr oxiriga tayyor mahsulot qoldig‘i (mln.so‘m)	10546,6	7465,6	13325,8	32948,0	57441,0	58147,1	60214,7	60412,9	109,6
4.	Xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni (kishi)	3998	4301	4447	4256	4200	4154	3997	3584	111,5
5.	O‘rtacha nominal hisoblangan ish xaqi (ming.so‘m)	1 475,6	1 521,5	1 554,1	1 600,2	1 785,3	2 500,4	3 800,9	4 213,7	110,9
6.	Rentabellik(%)	5,3	8,6	9,3	9,4	9,1	9,0	8,1	8,4	103,7

<sup>22</sup> Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasidan olingan ma’lumotlar asosida tuzilgan.

Shuningdek, tadqiqotimiz davomida korxonaning moliyaviy natijalari, eksport hajmi, davr oxiriga tayyor mahsulot qoldig'i, korxonada xodimlarining ro'yxatdagi o'rtacha soni, xodimlarga o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi va korxonada rentabellik darajasini ham tahlil qildik (3-jadval). 3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, moliyaviy natija 2015-yilda 2964,8 mln.so'mni, 2022-yilda 9174,3 mln.so'mni bo'lganini mahsulotga bo'lgan talab bilan bog'lashimiz mumkin. Eksport hajmi 2015-yilda 6119,8 ming AQSH dollari bo'lib, muttasil ravishda yilma-yil eksport hajmini raqamlarda faqat o'sish dinamikasini ko'rishimiz mumkin va bu ko'rsatkich 2022-yilga kelib 10123,7 ming AQSH dollarini tashkil etadi. Davr oxiriga tayyor mahsulot qoldig'i 2015-yilda 10546,6 mln.so'mni tashkil etgan, lekin 2016-yilga kelib bu ko'rsatkich 7465,6 mln.so'mgacha kamaygan bo'lib, davr oxiriga tayyor mahsulot qoldig'i pasayishiga sabab bo'lgan. Keyingi yillarda bu ko'rsatkich yil sayin ortib, 2022-yilga kelib 60412,9 mln.so'mni tashkil qildi.

#### 4-jadval

### Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi korxonalarining texnika va texnologiyalar bilan ta'minlanganlik holati tahlili<sup>23</sup>

№	Texnika va texnologiyalar nomi	Soni/ming dona
1.	Kompyuter	138 320
2.	Serverlar	20000
	<i>Shundan:</i>	
2.1	Texnologik jarayonlar boshqaruvi va kuzatish	16243
2.2	Hisobxonadagi IC dasturi	265
2.3	Elektron hujjat almashinuvi	200
3.	IP kuzatuv kameralari	6 000

Xodimlar soni 2015 yilda 3998 kishini tashkil qilgan, 2022 yilga kelib esa bu ko'rsatkich 3584 kishini tashkil qilmoqda. O'rtacha nominal hisoblangan ish haqi 2015 yilda 1475,6 ming so'm bo'lib, 2022 yil bu ko'rsatkich 4213,7 ming so'mni tashkil qilgan.

#### 5-jadval


### Innovatsion rivojlantirishning asosiy tendensiyalari<sup>24</sup>

Innovatsion o'zgarishlar	Asosiy natijalar
